DOI10.5281/zenodo.8402510

Toshtemirov Shohruh Toshpo‘latovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Email: sh.toshtemirov.asdp@gmail.com
Тел: +99899-377-63-46

AHOLI BANDLIGI VA FAROVONLIGINI OSHIRISHDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunda Mamlakatimizda aholi bandligi va farovonligini oshirishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ahamiyati, bu orqali mamlakatdagi ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarishdagi kapitallarga innovatsiyalar kiritish orqali korxona va firmalar bozorga sifatli mahsulotlarni yetkazib berish orqali iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish,yuqori daromad olish xamda mamlakatning aholi bandligi va farovonligini oshirishni ta’minlash tadqiq etiladi.
Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish, kapital, ishchi kuchi, samaradorlik, innovasoiya.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari doidasidagi muammolar va ularni oldini olish bo‘yicha innovatsion jarayonlar ortib bormoqda. Shuningdek bozorlarni egallashda, iste’molchilarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirishda ishlab chiqarishda innovatsiyalarni keng tadbiq etish dolzarb masala xisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Buz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.[1]

Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlik, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlashda innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish tashkilotlari va xizmat ko‘rsatishning turlarini oshirish orqali ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish hamda tarmoq tashkilotlari va klasterlar, venchur tashkilotlari va tegishli moliya bozorlarining turli vositalari ko‘magida kapital yaratishni, ya’ni arzonlashtirilgan va hammabop ishlab chiqarishni («birni-mingga» aylantiradigan) ta’minlash tizimiga o‘tishga katta ehtiyoj mavjud.[2]

Yangi raqobatbardosh va yuqori texnologiyali mahsulotlarning arzonlashtirilgan va hammabop katta hajmli ishlab chiqarilishini tashkil etish, mahalliylashtirish hamda samarador innovatsiyalar orqali kapital yaratish mamlakatimizda ishlab chiqarishning kapital va uning samaradorligini oshirishda innovatsiyalar ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun talaygina qonun hujjatlari qabul qilinmoqda, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoniga asosan 2022—2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini ko‘rishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish omillari va ular doirasini kengaytirishga bo‘lgan innovatsion

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B. 23.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-165-son Farmoni.

https://wordlyknowledge.uz

yondashuvlar jihatlari mavzusiga doir ilmiy-nazariy qarashlari orqali ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarga fikir va muloxazalariga to‘xtaladigan bo‘lsak.

Iqtisod fanlari doktori profyessor Shodmonov Sherkul Shodmonovich (2022) o‘zining “Iqtisodiyot nazariyasi”[3] nomli kitobida ishlab chiqarish omillariga quyidagicha yoritib bergan:

Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo‘llaniluvchi barcha resurslar **ishlab chiqarish omillari** deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat’iy nazar uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo‘lishi shart.

Bundan ko‘rinadiki, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy resurslardan farqli o‘laroq, o‘z ichiga faqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi unsurlarni oladi. Misol uchun, iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan pul resurslari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo‘llanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili bo‘la olmaydi. Ishlab chiqarish omillarining mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun ularning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Iqtisod fanlari doktori, profyessor N.Q. Yo‘ldoshev (2012) “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari”[4] mavzusidagi ilmiy maqolasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tgan:

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamrab olgan holda kishilarning mehnati natijalarini o‘zida aks ettiradi va sarf-daromad ko‘rinishida shakllanib, ishlab chiqarishni kengaytirish, myehnatkashlarning moddiy farovonligini oshirish va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy yuksalishi yo‘lida mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

M.Porter (1993) “Mejdunarodnaya konkurensiya”[5] kitobida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o‘rni, ularni qo‘llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta’siri masalalari tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida eng ustuvor va o‘ziga xos vazifa bu — tezkorlik bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori ish haqi taklif etadigan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘lib qoladi. Muammoning amaliy yechimlaridan biri sifatida innovatsiya — yuqori texnologik ish o‘rni tamoyiliga asoslangan mamlakatning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga qaratilgan alohida strategik amaliy dasturlar ishlab chiqish zarur.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi 2022 — 2026 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasining yuqori texnologik va ilm-fanga asoslangan yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini hamda yuqori ish haqiga ega ish o‘rinlarini yaratish orqali uzoq muddatli yo‘nalishlari hamda rivojlanish dasturlari belgilab berilmoqda.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-165-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B. 23.

3. Sh.Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi” Darslik– Toshkent, 2022 y.

https://wordlyknowledge.uz

4. N.Q. Yo‘ldoshev. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 yil.

5. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya: Per. s angl./ Pod.red. V.D. Shetinina. – M. Mejdunarodnыye otnosheniya, 1993. – 64 s;

1. www.lex.uz.
2. www.stat.uz
3. www.gov.uz

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz